

КОМПЬУТЕР САВОДХОНЛИГИ ВА INTERNET JANRLARI

Nosirov Nasibillo Xalilillo o'g'li
Andijon davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

Internet paydo bo'lishi bilan ommaviy kommunikatsiya hozirgi zamon sivilizatsiyasining muhim voqeligiga aylandi. Umuman, hayotning deyarli barcha aspektlari, jumladan, kundalik maishiy xizmat, savdo-sotiqdan tortib, axborot va ta'lim, iqtisodiyot va menejment, yuridik va konsullik xizmatlari va hatto, davlat boshqaruvigacha birin-ketin virtual dunyoga ko'cha boshladi. O'lis masofadan turib muloqot qilish, nafaqat o'qish va yozish, balki eshitish, ko'rish imkoniyatlarining yuzaga kelishi virtual muloqotni keskin ommalashtirdi. Shu tariqa, butun insoniyat uchun yangi kommunikativ muhitning vujudga kelishi va juda qisqa vaqt ichida rivojlanishi ijtimoiy omil sifatida nutqiy faoliyatning yangi shakllarini vujudga keltirdi.

Serqirra va murakkab antropotsentrik voqelik sifatida Internet muloqoti turli jihatdan o'rganila boshladi. Til tashuvchisi uchun yangi ifoda shakllarining paydo bo'lishi nuqtai nazaridan Internet matnlarining lingvistik jihatlari tadqiqot ob'ektiga aylandi.¹

Internet materiallari tadqiqi asosida internet muloqotida ushbu janrlarning barchasidan foydalaniladi degan xulosaga keldik. Gap shundaki, Internet tarmog'i kommunikatorlar tomonidan uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan kommunikatsion vosita vazifasini o'taydi. Dastlabki to'rt guruhga oid janrlar an'anaviy foydalanib kelingan va ilmiy doirada ko'p o'rganilganligi, nazariy va amaliy asoslarga ega ekanligini hisobga olib, ishimizda, asosan, Ijtimoiy tarmoqlarda yangi shakllanayotgan so'zlashuv uslubiga oid nutqiy janrlarni tadqiq etishga harakat qilamiz.

Internet tarmog'ining hosilasi o'laroq so'zlashuv uslubining yozma shakllari paydo bo'lishi bilan bu uslubda ham janr tushunchasiga ehtiyoj paydo bo'ldi. Dunyo tilshunosligida bu boradagi tadqiqotlarda tur va janr masalasida turli-tuman qarashlar mavjud bo'lib, aniq nazariy mezonlar ishlab chiqilmagan. Demak, fluktuatsiya hodisasi xali davom etmoqda, muloqot doirasiga rang-barang yangiliklar kirib kelayotganligi bois jarayonlar mo'tadillashib, bir to'xtamga kelinmagan.

Ko'pchilik tadqiqotchilar, jumladan, O.V.Lutovinova, L.Yu.Шипитина elektron pochta, chat, forum atamalariga oid tushunchalarni ham janr sifatida belgilayotganligini kuzatdik.² Bular, bizningcha, janr talabiga javob bermaydi, balki

¹ Қаранг: бу ҳақда ишнинг кириш қисмида батафсил маълумот берилган.

²Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. Волгоград: Перемена, 2009.; Шипитина Л.Ю. Комплексная характеристика жанра компьютерно-опосредованной коммуникации (на примере веб- страниц новостных агентств) [Электронный ресурс]. URL: <http://www.pags.ru/science/conferences/E-Conference/Shipitina.doc>

o'zaro muloqotda biror janrga oid nutqiy birliklar bilan almashinuv imkonini beradigan muloqot shakllari hisoblanadi. Masalan, forum yoki chatda kommunikator o'z sharhlari bilan qatnashib, bir necha suhbatdosh bilan axborot, fikr almashishi mumkin. Forum va chat o'zaro yaqin tushuncha bo'lib, faqat maqsadli yoki maqsadsiz muloqot nuqtai nazaridan farqlanadi. Forumda, ko'pincha, biror mavzu doirasida aralash uslubda bahs-munozara yuritiladi. Chatda (inglizcha shat - suhbat, gap sotmoq, valaqlamoq) esa oddiy so'zlashuv tilida «u yoq - bu yoqdan» tarzida suhbatlashiladi.

M.A.Ulyanova, O.Yu.Usacheva, L.F.Kompanseva, A.V.Ugrolar janrlarni o'rganish doirasiga «janr formati» atamasini kiritdilar³. Bu gipermatn, intertekstual ta'lim, nutqni yaratish uchun maxsus ekstralingvistik shartlarni aks ettiradi. Biroq, bu atama hali ilmiy adabiyotga kirmagan. Tilshunoslarning fikriga ko'ra, «format» - bu nutqni shakllantirish, tuzish va joylashtirish, kommunikativ almashinuv (o'zaro muloqot)ni amalga oshirish uchun tashqi qobiq hisoblanadi⁴. ye.I. Goroshko, ye.A. Jigalinalar esa *format* tushunchasi uchun «*giperjanr*» atamasini qo'llaydilar va giperjanr-janr tasnifini quyidagicha belgilaydilar:

Giperjanrlar:

- sayt;
- blog;
- ijtimoiy tarmoq;
- elektron kutubxona.

Internet-janrlar:

- elektron xat;
- forum;
- chat;
- e'lonlar doskasi;
- reklama banneri;
- xabarnoma (sms) almashinuvi;
- virtual konferensiya;
- post yoki muallif yozuvi;
- sharh (komment)⁵.

Mualliflar o'zlari e'tirof etganlaridek, bu tugal tasnif emas. Birinchidan, *giperjanr* - *janr* leksemalari o'zaro uyg'unligi bois ularni tizim→tizim a'zosi shaklida qo'llash tushunchalarda chalkashlik keltirib chiqarishi mumkin.

³ Каранг: Ульянова М. А. Классификация жанров интернет-дискурса //Linguamobilis. – 2014. – №. 3 (49). [Электронный ресурс:https://cyberleninka.ru/article/n/16148511]

⁴ Ульянова М. А. Классификация жанров интернет-дискурса.// Lingua mobilis 2014 № 3 (49) – С. 107.

⁵Горошко Е. И., Жигалина Е. А. Виртуальное жанроведение: устоявшееся и спорное // Вопросы психолингвистики. 2010. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnoe-zhanrovedenie-ustoyavsheesya-i-spornoe (дата обращения: 09.11.2020).

Ikkinchidan, tasnif elementlarini tahlil qilib ko'raylik. Internet muloqot jarayonini til sathlariga qiyoslab ko'raylik: tovushlar yig'indisi → so'z, so'zlar yig'indisi → gap, gaplar yig'indisi → matn. Endi yuqoridagi tasnifga e'tibor qilsak, «virtual konferensiya janmi?» degan savol paydo bo'ladi. **Konferensiyalot.** konferentia – bir joyga to'playman ma'nosini anglatar ekan, o'z-o'zidan, mantiqan janrlar yig'indisi degan tushuncha kelib chiqadi, ya'ni konferensiya ishtirokchilari bir necha janrda ishtirok etishlari mumkinmi, yo'qmi? Masalan, virtual konferensiyada kimdir tanishtirish nutqi, kimdir ma'ruza, kimdir sharh, kimdir sms – savol bilan qatnashadi. Demak, *virtual konferensiya* janr bo'lolmaydi, janrlar ishtiroki uchun format (maydon) bo'la oladi. Bunday mulohazalar *forum, chat, elektron pochta* ham kabilarga tegishli.

Ushbu tasnif borasida yana bir fikrni aytib o'tish joiz. Internet muloqoti janrlariga bag'ishlangan ishlarda **blog** atamasi keng va tor ma'noda qo'llanayotganligini kuzatdik. Tor ma'noda ixtiyoriy muallifning ommaga taqdim etgan yozma matni (janr), keng ma'noda blogger muallifning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, hazil-mutoyiba kabi turli-tuman yo'nalishlardan birida kommunikatorlarni jalb etish maqsadida muntazam ravishda bloglar taqdim etib boruvchi shaxsiy sahifasi. ye.I.Goroshko, ye.A.Jigalinalar⁶ atamaning ikkinchi ma'nosini nazarda tutgan holda giperjanr sifatida taqdim etganlar.

Tasniflash borasida A.V.Ugro⁷ pozitsiyasiga ijodiy yondashgan holda janrlarni quyidagicha ifodalash o'rinli deb hisoblaymiz: **kommunikativ makon → format → janr** (masalan, «Feysbuk» → chat → xabarnoma).

O'rganilgan nazariy qarashlarga tanqidiy yondashib, olimlar va o'z fikrlarimizni umumlashtirgan holda quyidagi tasnifni shakllantirdik:

Elektron xat. Internet muloqotining dastlabki ko'rinishi sifatida elektron pochta orqali yuboriladigan xat.

Elementlarning tarkibi va ishlash prinsipi nuqtai nazaridan qog'ozli pochta tizimiga asoslangan (pochta, xat, konvert, biriktirma, quti, yetkazib berish va boshqalar) jarayonlar internet tarmog'i orqali amalga oshiriladi, asosan, rasmiy doiralarda qo'llanadi. Elektron pochta orqali xatdan boshqa janrdagi hujjatlarni ham matn, fayl, mediafayl, dastur shakllarida yuborish mumkin. Hozirgi vaqtda har qanday yangi foydalanuvchi Internet-portallardan birida ro'yxatdan o'tib, o'zining elektron pochta qutisini yaratishi mumkin.

Xabarnoma (SMS). Bu tushuncha endigina hayotimizga kirib kelganligi uchun lug'atlarda aks etmagan. Shuning uchun quyidagicha ta'rif berishni tavsiya etamiz: **Xabarnoma dialogik nutqqa oid sintaksemalarning kommunikatsion vositalar**

⁶Горошко Е. И., Жигалина Е. А. Виртуальное жанроведение: устоявшееся и спорное // Вопросы психолингвистики. 2010. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnoe-zhanrovedenie-ustoyavsheesya-i-spornoe> (дата обращения: 09.11.2020).

⁷ Угро А.В. Виртуальное жанроведение: в поисках жанра // Известия ВГПУ. 2018. №6 (129). – С. 168-172.

(telefon, internet tarmog'i) orqali matn yoki ovozli yozuv shaklida masofadan turib adresatga uzatiladigan shakli.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, internet muloqoti kommunikantlarning kreativ va retseptiv kompetensiyalari rivojlanishiga hamda informativ, regulyativ va metakommunikativ strategiyalarning shakllanishiga turtki bo'ladi. Internet muloqoti janrlari nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, kulturologiya, ayniqsa, texnologiyaning adabiyot rivojiga ijobiy tasirini inkor etib bo'lmaydigan bir paytda adabiyotshunoslik kabi sohalar doirasida ham tadqiq qilinishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Қаранг: бу ҳақда ишнинг кириш қисмида батафсил маълумот берилган.
2. Лутовинова О.В. Лингвокультурологические характеристики виртуального дискурса. Волгоград: Перемена, 2009.; Щипицина Л.Ю. Комплексная характеристика жанра компьютерно-опосредованной коммуникации (на примере веб- страниц новостных агентств) [Электронный ресурс]. URL: <http://www.pags.ru/science/conferences/E-Conference/Shipitina.doc>
3. Қаранг: Ульянова М. А. Классификация жанров интернет-дискурса //Linguamobilis. – 2014. – №. 3 (49). [Электронный ресурс:<https://cyberleninka.ru/article/n/16148511>]
4. Ульянова М. А. Классификация жанров интернет-дискурса.// Lingua mobilis 2014 № 3 (49) – С. 107.
5. Горошко Е. И., Жигалина Е. А. Виртуальное жанроведение: устоявшееся и спорное // Вопросы психолингвистики. 2010. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnoe-zhanrovedenie-ustoyavsheesya-i-spornoe> (дата обращения: 09.11.2020).
6. Горошко Е. И., Жигалина Е. А. Виртуальное жанроведение: устоявшееся и спорное // Вопросы психолингвистики. 2010. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/virtualnoe-zhanrovedenie-ustoyavsheesya-i-spornoe> (дата обращения: 09.11.2020).
7. Угро А.В. Виртуальное жанроведение: в поисках жанра // Известия ВГПУ. 2018. №6 (129). – С. 168-172.